Xulosa. O‘zbek va ingliz sarlavhalarida grammatik kompressiya modellari tipologik va madaniy omillarga bog‘liq o‘ziga xoslik ko‘rsatadi. Ingliz tilida yordamchi birliklarni tushirish, o‘zbek tilida esa agglutinativ morfologiyaga tayangan modellar ustun. O‘rtacha darajadagi kompressiya axborot ta’sirchanligi va o‘quvchi idroki uchun eng maqbul hisoblanadi. Medialingvistika nuqtai nazaridan grammatik kompressiya sarlavhalarda qisqalikdan tashqari muhim diskursiv va kommunikativ strategiya sifatida ishlatiladi. Kompressiya darajasi auditoriya, mavzu va madaniy me’yorlarga mos belgilanishi zarur, chunki ortiqcha qisqartirish semantik va pragmatik yo‘qotishlarga olib keladi. Natijalar jurnalistika, OAV ta’limi va tarjimashunoslikda qo‘llanilishi mumkin hamda sarlavha yaratish strategiyalarini takomillashtirish va raqamli media hamda sun’iy intellekt asosida sarlavha yaratishni o‘rganish uchun nazariy asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Bookstein A., Klein S.T. Siqish, axborot nazariyasi va grammatika: yagona yondashuv. ACM Axborot tizimlari bo‘yicha tranzaksiyalar (TOIS). 1990, 8-j, 1-son, 27–49-betlar.

(2). Khramchenko Dmitry S. "How headlines communicate: a functional-pragmatic analysis of small-format texts in english-language mass media". Training, Language and Culture, vol. 7, № 2, 2023, pp. 30–38.

(3). Шагланова Е.А. Компрессия текста телерекламы: стратегический аспект. Дис., Улан-Удэ, дис.... канд. филолог. наук, 2018.

(4). Шагланова Е.А. Информационно-стратегический потенциал компрессии текста телерекламы. Дис., Улан-Удэ, 2016.

(5). Комарова С.С. Семантическая компрессия в прагматике высказывания: на материале немецкоязычной прессы. Дис., Самара, автореф. дис.… канд. филол. наук, 2005.

(6). Добросклонская Т.Г. Теория и методы медиалингвистики (на материале английского языка). Дис.... доктора филологических наук. М., 2000, т. 368.

(7). Turg‘unova F. Grammatik kompressiya orqali yangiliklar sarlavhalarini optimallashtirish. Strategiyalarni o‘rganish va auditoriyani jalb qilish. Farg‘ona davlat universiteti, 2024, 6-son, c. 72–72.

(8). Baymuxametova K.I. et al. Badiiy matnlarni tarjima qilishda kompressiyaning ahamiyati. lteachin anguage, c. 154.

(9). Fazilat T.U. O‘zbek va ingliz sarlavhalarida grammatik kompressiyaning o ‘quvchi psixologiyasiga ta’siri lingvistik va pragmatik yondashuv. «ACTA NUUz», 2025, 1-j, 1.1-son, 334–336-betlar.

(10). Razakova S.H.D. Tarjimashunoslikda kompressiya bilan bog‘liq muammolar. Экономика, c. 243–247.

Abdullayeva Gulnora Erimmatovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti katta o‘qituvchisi; e-mail: gulnora2003@mail.ru)

NEMIS TILI SODDA GAP TARKIBIDA KELGAN ES SHAXSSIZ OLMOSHINING ISHLATILISHI VA UNING O‘ZBEKCHA TARJIMASINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nemis tili sodda gap tarkibida qo‘llaniladigan es shaxssiz olmoshining grammatik va semantik xususiyatlari hamda uning o‘zbek tiliga tarjimadagi ifodalanish usullari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot materiali sifatida Uchqun Nazarovning “Chayon yili” romani va uni Ingeborg Baldauf tomonidan nemis tiliga qilingan tarjimasi tanlangan. Maqolada es olmoshining formal subyekt sifatidagi funktsiyasi, idiomatik konstruksiyalar tarkibidagi ishtiroki hamda emotsional-ekspressiv gaplarda qo‘llanilishi nemis va o‘zbek tillarining tipologik xususiyatlari asosida yoritiladi. Tahlil nemis va o‘zbek tilshunos olimlarining nazariy qarashlariga tayanadi. Qiyosiy tahlil natijalari nemis tilida grammatik tuzilish ustuvor, o‘zbek tilida esa semantik mazmun birinchi o‘rinda turishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar*: es olmoshi, shaxssiz gap, formal subyekt, nemis tili, o‘zbek tili, qiyosiy tahlil, badiiy tarjima.*

Абдуллаева Гульнора Эримматовна (старший преподаватель, Ургенчский государственный университет имени Абу Райхона Беруни; e-mail: gulnora2003@mail.ru)

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ БЕЗЛИЧНЫХ МЕСТОИМЕНИЙ В ПРОСТОЙ РЕЧИ НА НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ И ЕГО ПЕРЕВОД НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

Аннотация. *В статье рассматриваются грамматические и семантические особенности безличного местоимения es в составе простых предложений немецкого языка и способы его передачи в узбекском языке. Материалом исследования послужили примеры из романа Учкуна Назарова «Год скорпиона» и его немецкого перевода, выполненного Ингеборг Балдауф. Анализируется функционирование местоимения es в роли формального подлежащего, в составе идиоматических конструкций, а также в эмоционально-экспрессивных высказываниях. Исследование основано на теоретических положениях немецких и узбекских лингвистов. Сопоставительный анализ показывает,*

что в немецком языке местоимение es выполняет прежде всего грамматическую функцию, тогда как в узбекском языке аналогичные значения передаются преимущественно лексико-семантическими средствами.

***Ключевые слова**: безличное местоимение es, простое предложение, формальное подлежащее, немецкий язык, узбекский язык, сопоставительный анализ, художественный перевод.*

Abdullaeva Gulnora Erimmatovna (senior lecturer, Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni; e-mail: gulnora2003@mail.ru)

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE USE OF THE IMPERSONAL PRONOUN "ES" IN SIMPLE SPEECH IN THE GERMAN LANGUAGE AND ITS UZBEK TRANSLATION

***Annotation.** This article examines the grammatical and semantic features of the impersonal pronoun es used in simple sentences in the German language and analyzes the ways it is rendered in Uzbek. The research material is based on examples taken from Uchqun Nazarov's novel The Year of the Scorpion and its German translation by Ingeborg Baldauf. Particular attention is paid to the function of es as a formal subject, its use in idiomatic constructions, and its role in emotionally expressive utterances. The study draws on theoretical approaches developed by German and Uzbek linguists. The comparative analysis demonstrates that in German the pronoun es primarily fulfills a grammatical function, whereas in Uzbek similar meanings are conveyed mainly through lexical and semantic means.*

***Key words**: impersonal pronoun es, simple sentence, formal subject, German language, Uzbek language, contrastive analysis, literary translation.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda qiyosiy tadqiqotlar turli tillarda bir xil grammatik hodisalarning ifodalanish mexanizmlarini aniqlash, ularning tipologik xususiyatlarini ochib berish hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, strukturaviy jihatdan bir-biridan farqlanuvchi nemis va o'zbek tillarida shaxssizlik hodisasining ifodalanishi til tizimlarining o'ziga xosligini namoyon etuvchi dolzarb masalalardan biridir. Nemis tilida ega pozitsiyasining grammatik jihatdan majburiyligi shaxssiz gaplarda maxsus formal vositalarning, jumladan, es shaxssiz olmoshining qo'llanilishiga olib keladi. O'zbek tilida esa ega, ko'pincha, tushirilishi mumkin bo'lib, shaxssizlik, asosan, kesimning leksik-semantik imkoniyatlari orqali ifodalanadi. Mazkur farq nemis tilidagi shaxssiz konstruksiyalarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Nemis tili sodda gap tarkibida kelgan es shaxssiz olmoshi grammatik jihatdan muhim, biroq semantik jihatdan ko'pincha bo'sh birlik sifatida namoyon bo'ladi. U real shaxs yoki predmetni bildirmaydi, balki gapning sintaktik to'liqligini ta'minlash vazifasini bajaradi. Bunday es tabiat hodisalarini, umumiy holat va vaziyatni, shuningdek, baholovchi va mavjudlikni bildiruvchi sodda gaplarda faol qo'llaniladi. Shu nuqtayi nazardan, es shaxssiz olmoshining funksional imkoniyatlarini aniqlash va uning o'zbek tilidagi tarjima usullarini qiyosiy tahlil qilish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Nemis tilshunosligida es shaxssiz olmoshining tabiati va funksiyasi masalasi XIX asrdan boshlab tadqiq etib kelinmoqda. Yakob Grimm esni mazmunsiz, formal subyekt sifatida baholab, uning vazifasini gapning grammatik tuzilishini saqlash bilan izohlaydi. Zamonaviy germanistikada esa es nafaqat formal-subyekt, balki gapning axborot va kommunikativ tuzilishini tashkil etuvchi sintaktik vosita sifatida ham talqin qilinadi. Xususan, Helbig va Buscha hamda Duden grammatikasida esning majburiy va fakultativ qo'llanilishi, shuningdek, sodda gap tarkibidagi strukturaviy vazifalari atroflicha yoritilgan. Ushbu nazariy qarashlar es shaxssiz olmoshining sodda gaplarda qanday sharoitlarda qo'llanishini aniqlash uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

O'zbek tilida shaxssizlik kategoriyasi, asosan, ega tushirilishi yoki shaxssiz fe'llar orqali ifodalanadi. Shu sababli nemis tilidagi es shaxssiz olmoshi, ko'pincha, o'zbek tiliga bevosita tarjima qilinmaydi va nol birlik sifatida talqin etiladi. Masalan, nemis tilidagi Es regnet yoki Es ist kalt kabi sodda gaplar o'zbek tilida Yomg'ir yog'moqda, Sovuq tarzida ifodalanadi. Bunda nemis tiliga xos bo'lgan formal ega o'zbek tilida semantik va sintaktik jihatdan talab etilmaydi. Bu holat ikki til o'rtasidagi tipologik farqlarni yaqqol namoyon etadi.

Shu bois ushbu maqolada nemis tili sodda gap tarkibida kelgan es shaxssiz olmoshining ishlatilishi hamda uning o'zbekcha tarjima variantlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot nemis va o'zbek tillarining grammatik xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borilib, shaxssiz konstruksiyalarning tarjimada to'g'ri talqin qilinishiga xizmat qiluvchi ilmiy xulosalar chiqarishni maqsad qiladi. Mazkur maqola natijalari qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik hamda nemis tilini o'qitish amaliyotida muhim metodik ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Nemis tili analitik til sifatida gap qurilishida qat'iy sintaktik qoidalarga amal qiladi. Bu qoidalarga ko'ra, har bir gapda ega va kesim mavjud bo'lishi shart. Real subyekt mavjud bo'lmagan hollarda ham gapning formal tuzilishi saqlanishi lozim. Ana shu o'rinda es shaxssiz olmoshi grammatik zarurat natijasida qo'llaniladi.

Yakob Grimm nemis tilidagi *es* shaxssiz olmoshini mustaqil leksik ma'noga ega bo'lmagan, asosan formal subyekt vazifasini bajaruvchi grammatik birlik sifatida izohlaydi. Uning qarashlariga ko'ra, *es* real shaxs yoki predmetni anglatmaydi, balki shaxssiz gaplarda fe'lning shaxs-son shaklini grammatik jihatdan to'g'ri ifodalash uchun xizmat qiladi (Grimm, 1822). Grimm ayniqsa sodda gaplar tarkibida qo'llaniladigan shaxssiz konstruksiyalarda *es*ning ahamiyatiga e'tibor qaratadi. Masalan, *Es regnet* yoki *Es schneit* kabi gaplarda ega semantik jihatdan mavjud bo'lmaydi, *es* esa mazmunsiz bo'lsa-da, gapning sintaktik to'liqligini ta'minlaydi. Grimm bu turdagi *es*ni semantik jihatdan "bo'sh", biroq grammatik jihatdan zarur unsur sifatida baholaydi.

Shuningdek, holat va vaziyatni bildiruvchi sodda gaplarda ham *es* shaxssiz olmoshi Grimm tomonidan formal subyekt sifatida talqin qilinadi. *Es ist kalt* yoki *Es ist dunkel* kabi gaplarda *es* hech qanday aniq referentga ega emas, gapning asosiy mazmuni predikativ birlik orqali ifodalanadi. Grimmning fikricha, bunday konstruksiyalarda *es*ning vazifasi mazmun yaratish emas, balki predikativ tuzilmaning grammatik shakllanishiga xizmat qilishdan iboratdir (Grimm, 1822).

Zamonaviy germanistikada, xususan Helbig va Buscha tadqiqotlarida, *es* shaxssiz olmoshiga nisbatan Grimm yondashuvidan ko'ra kengroq va funksional talqin beriladi. Ular *es*ni faqat mazmunsiz birlik sifatida emas, balki gapning sintaktik va kommunikativ tuzilishini tashkil etuvchi element sifatida ko'radilar (Helbig, Buscha, 2001). Masalan, *Es ist wichtig, die Grammatik zu verstehen* kabi gaplarda *es* keyin keluvchi infinitiv konstruksiyaning formal o'rnini egallaydi va oldindan ko'rsatuvchi vosita vazifasini bajaradi. Bu holatda *es* semantik jihatdan mustaqil bo'lmasa-da, gapning strukturaviy barqarorligini ta'minlaydi.

Duden grammatikasida ham *es* shaxssiz olmoshi "formales Platzhalter-Subjekt" sifatida tavsiflanadi va uning majburiy hamda fakultativ qo'llanilishi farqlanadi (Duden, 2016). Masalan, *Es schneit* gapida *es* majburiy hisoblanadi, chunki bunday shaxssiz fe'llar bilan ega tushirilishi mumkin emas. *Heute schneit es* kabi gaplarda esa *es*ning joylashuvi gapning axborot tuzilishiga bog'liq holda o'zgaradi. Bundan tashqari, *Es ist klar, dass er kommt* kabi konstruksiyalarda *es* ergash gapdan oldin kelib, uning formal o'rnini egallaydi va gapning sintaktik muvozanatini ta'minlaydi.

Yakob Grimm va zamonaviy germanistika vakillari qarashlarini qiyoslash shuni ko'rsatadiki, Grimm *es* shaxssiz olmoshining asosan semantik bo'shligiga urg'u bergan bo'lsa, Helbig va Buscha hamda Duden grammatikasi uning strukturaviy va kommunikativ funksiyalarini ham alohida ta'kidlaydi. Biroq barcha yondashuvlarda *es*ning real shaxs yoki predmetni bildirmasligi umumiy belgi sifatida e'tirof etiladi.

Nemis va o'zbek tillarini qiyosiy jihatdan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, nemis tilida grammatik jihatdan majburiy bo'lgan *es* shaxssiz olmoshi o'zbek tiliga tarjimada, ko'pincha, ifodalanmaydi. O'zbek tilida shaxssizlik, asosan, ega tushirilishi yoki kesimning leksik-semantik imkoniyatlari orqali amalga oshiriladi. Masalan, *Es ist kalt* gapining o'zbekcha muqobili *Sovuq*, *Es regnet* esa *Yomg'ir yog'moqda* tarzida beriladi. Bu holat *es* shaxssiz olmoshining o'zbek tilida bevosita formal muqobili mavjud emasligini va tarjimada nol birlik sifatida talqin qilinishini ko'rsatadi.

Duden grammatikasida yana es olmoshi "o'rin bosuvchi subyekt" sifatida tavsiflanadi va bunday gaplarda uni tushirib qoldirish mumkin emasligi qayd etiladi. Bu holat nemis tilida grammatik shaklning mazmundan ustun qo'yilishini ko'rsatadi.

Shendels "es" olmoshini sodda gaplarda formal subyekt vazifasini bajarishini ta'kidlab, uni nemis tilining sintaktik qat'iyligini ta'minlovchi vosita sifatida ko'radi, chunki u shaxssiz fe'llar, tabiiy hodisalar va holatlarni ifodalashda majburiy ravishda gap boshida kelishini va fe'lning uchinchi shaxs birlik shaklini talab qilishini tasdiqlaydi (Shendels, 1988). U bu olmoshning semantik bo'shligini, ya'ni, haqiqiy ma'no bermay, faqat grammatik mantiqiy to'liqlik uchun xizmat qilishini alohida ajratib ko'rsatadi. U sodda gaplarda "es"ning grammatik funksiyasini yanada kengroq misollar orqali tahlil qilib, uning nemis tilidagi majburiy subyekt rolini ta'kidlaydi. Masalan: "Es schneit" (Qor yog'moqda) misolida Shendels "es" olmoshining tabiiy hodisalarni shaxssiz ifodalashdagi asosiy vosita ekanligini ko'rsatadi, bu yerda olmosh gapning sintaktik tuzilishini to'ldirib, fe'lning uchinchi shaxs birlik shaklini faollashtiradi va o'zbek tilida faqat fe'l bilan yetarli bo'ladi. Yana bir misol "Es gibt Milch im Kühlschrank" (Muzlatgichda sut bor) da "es"ning mavjudlik holatini bildirishdagi rolini ochib beradi, u formal subyekt sifatida infinitiv yoki nominal elementlarni bog'lab, gapni mantiqiy yakunlaydi, ammo semantik jihatdan bo'sh qoladi. Bundan tashqari, "Es tut mir leid" (Afsuski, menga achinadi) da "es" dativ bilan birgalikda emotsional holatni shaxssiz qiladi,

Shendels bu holatda olmoshning kontekstual moslashuvchanligini va o‘zbekchadagi ekvivalentlarning passiv yoki subyektsiz shakllarga o‘tishini misol qilib keltiradi.

O‘zbek tilida esa vaziyat mutlaqo boshqacha. O‘zbek tili agglyutinativ til bo‘lgani uchun unda subyektsiz gaplar erkin qo‘llaniladi. Tabiat hodisalarini ifodalashda yoki umumiy holatni bildirishda alohida formal ega talab etilmaydi. Nemis tilidagi *“Es regnet”* gapi o‘zbek tiliga “Yomg’ir yog‘yapti” deb tarjima qilinadi va bu tarjimada es olmoshiga mutlaqo muqobil qo‘llanilmaydi.

O‘zbek tilshunosi Sh.Rahmatullaev o‘z tadqiqotlarida o‘zbek tilida gap mazmunini ifodalashda semantik omil birinchi o‘ringa chiqishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, o‘zbek tilida harakatning egasi gapda ochiq ifodalanmasligi mumkin va bu holat grammatik xato hisoblanmaydi. Mazkur qarash nemis tili bilan qiyoslaganda muhim tipologik farqni ko‘rsatadi.

Nemis tilida es olmoshi umumiy holatni ifodalovchi gaplarda ham keng qo‘llaniladi: *Es ist kalt, Es ist schwer, diese Frage zu beantworten.* Bunday gaplar o‘zbek tiliga “Sovuq”, “Bu savolga javob berish qiyin” tarzida tarjima qilinadi. Bu yerda ham es olmoshi tarjimada aks etmaydi, chunki o‘zbek tilida holatning o‘zi gap markazi hisoblanadi.

P.Ayzenbergning ta’kidlashicha, es ishtirok etgan shaxssiz gaplarda predikatsiya aniq subyektga emas, balki umumiy vaziyatga qaratilgan bo‘ladi. Bu xususiyat o‘zbek tilidagi holat gaplari bilan mazmunan mushtarak bo‘lsa-da, ifoda vositalari jihatidan farq qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola oldiga qo‘yilgan muammolar yechimiga javob topish maqsadida qiyosiy-tarixiy metod asosiy metod sifatida tanlandi. Ushbu metod nemis va o‘zbek tillarida shaxssizlik hodisasining shakllanishi hamda rivojlanish jarayonini tarixiy va tipologik jihatdan solishtirish imkonini berdi. Xususan, nemis tilidagi es shaxssiz olmoshining sodda gap tarkibida kelish holatlari, ularning sintaktik vazifalari va semantik xususiyatlari o‘zbek tilidagi mos yoki mos kelmaydigan birliklar bilan qiyoslab o‘rganildi. Bundan tashqari, tadqiqotda qiyosiy-tipologik metod qo‘llanilib, ikki til tizimidagi shaxssiz konstruktsiyalarning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. Deskriptiv (tasviriy) metod yordamida es olmoshining real nutqdagi qo‘llanilish holatlari tahlil qilinib, ularning grammatik va funksional xususiyatlari izohlandi.

Shuningdek, kontekstual-tahlil metodi asosida es shaxssiz olmoshi ishtirok etgan gaplarning tarjima jarayonida yuzaga keladigan transformatsiyalar, jumladan, olmoshning tushirib qoldirilishi, fe’l shakli bilan kompensatsiyalanishi yoki boshqa sintaktik vositalar orqali ifodalanishi holatlari ko‘rsatib berildi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlash maqsadida misollarga tayangan holda tahlil qilish hamda ilmiy manbalarni solishtirish usullaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. Uchqun Nazarovning “Chayon yili” romanidan olingan gaplar va ularning Ingeborg Baldauf tomonidan nemis tiliga qilingan tarjimasi qiyosiy tahlil qilinganda, nemis tiliga xos bo‘lgan es olmoshining grammatik va funksional xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Tarjimada es olmoshi, ko‘p hollarda, o‘zbek tilida to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodaga ega bo‘lmagan holat va vaziyatlarni sintaktik jihatdan to‘ldiruvchi vosita sifatida qo‘llanilgan.

Uchqun Nazarovning “Chayon yili” romanidan olingan birinchi misolda o‘zbek tilidagi *“Hovuridan tushadi-qoladi”* iborasi nemis tilida *Einmal kommt es doch heraus* sifatida tarjima qilingan. Bu yerda es olmoshi aniq subyektni anglatmaydi, balki hodisa holatini umumiy tarzda ifodalaydi. Xelbig va Busha fikriga ko‘ra, es shaxssiz olmoshi “Platzhalter-Subjekt” sifatida gapda formal subyekt vazifasini bajaradi va grammatik to‘liqlikni ta’minlaydi. O‘zbek tilida bu ma’noga bevosita leksik va kontekstual vositalar orqali erishiladi, formal subyekt talab qilinmaydi.

Tahlilga tortilayotgan ikkinchi misolda o‘zbek tilidagi *“Hali ham kechmas, birov bilmay turib, ayt, chiqib ketsin”* gapi nemis tilida *Es ist noch nicht zu spät, sag ihr, sie soll gehen, bevor es jemand merkt* shaklida tarjima qilingan. Bu yerda ikki marta es olmoshi qo‘llanilgan. Birinchisi *Es ist noch nicht zu spät* shaxssiz vaziyatni ifodalaydi, ikkinchisi *bevor es jemand merkt* subyekt aniq bo‘lmagan holatda fe’lni to‘ldiruvchi vosita sifatida ishtirok etadi. Ayzenbergning fikriga ko‘ra, es shaxssiz olmoshi nemis tilida, ko‘pincha, harakatni umumiy vaziyat sifatida taqdim qilishda ishlatiladi. O‘zbek tilida esa bunday holatlar “birov bilmay turib” kabi kontekstual ifodalar orqali o‘z ma’nosini topadi.

Keyingi misolni talil qilish jarayonida o‘zbek tilidagi *“Oilaga fayz kirgandek boldi”* gap nemis tilida *Es war, als wären sie eine glückliche Familie geworden* shaklida tarjima qilinganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu yerda es olmoshi gapda formal subyekt vazifasini bajaradi va emotsional mazmunni saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbek tilida gap subyekti aniq ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, ma’no kontekst va tasviriy uslub orqali aniq anglanadi. Sh.Rahmatullayev fikriga ko‘ra, o‘zbek tilida semantik tushuncha ustuvor bo‘lib, formal grammatik tuzilish shart emas. Ushbu misollarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, Inge-

borg Baldauf tarjimada nemis tili sintaktik qoidalariga qat'iy amal qilgan holda es olmoshini formal subyekt yoki idiomatik konstruksiya tarkibida qo'llagan. O'zbek tilida esa bu kabi holatlar leksik, semantik va kontekstual vositalar orqali ifodalanadi. Demak, es olmoshi tarjimada mazmunni emas, balki gapning grammatik tuzilishini ta'minlashga xizmat qilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, "Chayon yili" romani tarjimasida es olmoshining qo'llanilishi nemis tilining analitik xususiyatlari bilan izohlanadi. O'zbek tilida bunday formal subyekt kategoriyasining mavjud emasligi esa ikki til o'rtasidagi tipologik farqni yanada oydinlashtiradi. Bu holat nemis tilidan o'zbek tiliga va aksincha tarjima jarayonida semantik adekvatlikni saqlagan holda grammatik moslashuv qanday amalga oshirilishini yaqqol namoyon etadi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, nemis tili sodda gap tarkibida kelgan es shaxssiz olmoshi, asosan, grammatik funktsiyani bajaradi va gapning formal tuzilishini ta'minlaydi. O'zbek tilida esa bunday formal subyekt kategoriyasi mavjud emas. Shu sababli nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima jarayonida es olmoshi, ko'p hollarda, nol tarjima orqali beriladi.

Mazkur farq ikki tilning tipologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, analitik va agglyutinativ tillar o'rtasidagi asosiy tafovutlarni yaqqol namoyon etadi. Bu tahlil nemis va o'zbek tillari o'rtasidagi sintaktik va semantik farqlarni ko'rsatadi hamda badiiy tarjimaning nazariy asoslari uchun muhim ilmiy xulosa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Grimm J. Deutsche Grammatik. Göttingen: Dieterichsche Buchhandlung, 1822, Bd. 1, 695 s.

(2). Helbig G., Buscha J. Deutsche Grammatik: Ein Handbuch für den Ausländerunterricht. Berlin, München, Langenscheidt, 2001, 654 s.

(3). Duden Die Grammatik: Unentbehrlich für richtiges Deutsch. 9., völlig neu bearb. Aufl. Berlin, Dudenverlag, 2016 (Duden; Bd. 4), 1344 s.

(4). Шендельс Е.И. Грамматика немецкого языка: Синтаксис. Москва, "Высшая школа", 1988, 320 с.

(5). Айзенберг П. Проблемы безличных предложений в немецком языке. Вопросы германского языкознания. Москва, "Наука", 1985, 112–126 с.

(6). Адмони В.Г. Синтаксис современного немецкого языка. Ленинград, "Наука", 1973, 365 с.

(7). Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining grammatik tuzilishi. Toshkent, "Fan", 1990, 280-bet.

(8). Mirsoatov T.Z. Deutsche Grammatik. Nemis tili grammatikasi. Morfologiya, Toshkent, « O'qituvchi », 1987, 274-bet.

(9). Nazarov U. Chayon yili. Toshkent, "Sharq", 2010, 320-bet.

(10). Baldauf I. Das Jahr des Skorpions. Berlin, Aufbau Verlag, 2018, 384 s.

Xudaybergenova Gulbaxor Shuxrat qizi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Roman-german filologiyasi" kafedrasi tayanch doktoranti; gulbaxorxudaybergenova97@gmail.com); ORCID: 0009-0006-3394-7876)

O'ZBEK PAREMIYALARIDA ISH KONSEPTI ORQALI JAMOATCHILIK MENTALITETINING AKS ETISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek paremiyalarida "ish" konsepti orqali xalqning jamoatchilik ruhiyati va mehnatga munosabatining ifodalanishi lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda paremiologik birliklar semantik, konseptual va madaniy qatlamlarda o'rganilib, ularning xalq tafakkuridagi jamoaviylik, o'zaro yordam va hasharchilik qadriyatlarini aks ettirish mexanizmlari ochib beriladi. Maqolada "ish" konsepti o'zbek milliy mentalitetida qanday ijtimoiy-ma'naviy mazmun kasb etishi tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar*: ish, konsept, paremiya, lingvomadaniyat, qadriyat, jamoatchilik, hashar, an'ana.*

Худайбергенова Гулбахор Шухрат қизи (докторант кафедры "Романо-германская филология" Ургенчского государственного университета)

ОТРАЖЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОГО МЕНТАЛИТЕТА ЧЕРЕЗ КОНЦЕПТ «ТРУД» В УЗБЕКСКИХ ПАРЕМИЯХ

Аннотация*. В данной статье с лингвокультурологической точки зрения анализируется выражение общественного сознания народа и его отношения к труду через концепт «труд» в узбекских паремиях. В ходе исследования паремиологические единицы рассматриваются в семантическом, концептуальном и культурном аспектах, раскрываются механизмы отражения в народном мышлении ценностей коллективизма, взаимопомощи и традиций хашара. В статье также анализируется социально-нравственное содержание, которое приобретает концепт «труд» в узбекском национальном менталитете.*

Ключевые слова: *труд, концепт, паремия, лингвокультура, ценность, общественность, хашар, традиция.*